

OILAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

Xudoyqulova Nigora Abdug‘aniyevna

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani 31- sonli umum ta’lim maktab psixologi

Anatatsiya: Ushbu maqolada oilaviy muammolarni o’rganish oilaviy muammolar o`zaro munosabatlardagi kelishmovchilik, o`zini tuta olmaslik, turmush o`rtog`idan mammun bo`lmaslik, zerikarli hayot, oilaviy burchlarning taqsimlanishi, janjalkashlik, o`ta manmanlik, xulq-atvordagi nomukamallik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik kabi oila a’zolariga xos xatti-harakatlar va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqishi haqida yoritilgan..

Kalit so`zi: Oila, oilaviy munosabatlar, oiladagi tenglik, er-xotin nizolari, etnopsixologik xususiyatlari.

KIRISH

Ko'pchilik ertami-kechmi oila quradi. Birinchidan, oilaviy hayot ertak kabi ko'rindi, er-xotinlar bir-biriga baxt va cheksiz muhabbatni boshdan kechiradilar. Ammo zamonaviy dunyo o'tgan yillar davomida yosh oilalarga xos xususiyatlarni o'zgartirdi. Yosh oilaning muammolari oilaning yangi turini tashkil etadi. Bunday oilada birdamlik, birdamlik oila a'zolarining o`zaro tushunish, qo'shilish, sadoqat va shaxsiy munosabatlariga bog'liqdir. Bugungi kunda yosh oilalarning muammolari ushbu muammolarning psixologik sabablarini o'rganish va tushunishning dolzarb vazifasidir. Keling, yosh oilalarning eng muhim muammolarini batafsil ko'rib chiqamiz va bu oilaviy qiyinchiliklarni qanday engish kerakligini tushunishga harakat qilaylik Zamonaviy haqiqatda yangi turmush qurbanlarning muammolari har xil. Ularning kelib chiqishi, birinchi navbatda, avvalgi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi va yosh oilalarga nisbatan ijtimoiy muhofaza qilishdir. Oila muammosi azaldan insoniyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki oila mustahkamligi jamiyat faravonligining asosiy negizidir. Shu sababli Respublikamiz rahbariyati har bir xonardonning tinchligini, oilalarda farzandlarning baxtli, barkamol o'sishini ta'minlashga qaratilgan qator

tadbirlarni amalga oshirmoqda. Oilaviy muammolar yechimini o'rganish borasida respublikamiz psixolog olimlari tomonidan bir qator diqqatga sazovor ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Jumladan, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, X.K.Karimov, Sh.Sh.Jo'rayeva, F.A.Akromova, R.M.Abdullayeva, Yo.No'monova, M.O.Utepbergenov, R.A.Samarov, T.Norimbetov kabi olimlarimiz va ularning izdoshlari tomonidan so'nggi yillar davomida o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari, er-xotin nizolari, oilaviy rollar taqsimoti, oilalardagi shaxslararo munosabatlar hamda oilaviy muammolar kabi masalalar o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar respublikamizda oilani ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan tadqiq etish bo'yicha ma'lum bir o'ziga xos an'analarning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Oilaviy muammolarni o'rganish maqsadida olingan test natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolar o`zaro munosabatlardagi kelishmovchilik, o`zini tuta olmaslik, turmush o`rtog`idan mamnun bo`lmaslik, zerikarli hayot, oilaviy burchlarning taqsimlanishi, janjalkashlik, o`ta manmanlik, xulq-atvordagi nomukamallik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik kabi oila a'zolariga xos xatti-harakatlar va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqar ekan. Yana shu narsaga amin bo`ldikki inson o`zi ideal insonni izlarkan. Ko`p holatlarda er-xotinlarning bir-biridan qoniqmaslik (ish vazifalaridan norozilik), gumonsirash, tanqid, tanbeh kabilar ham ko`pgina muammolarni keltirib chiqarishini bildik. Oila a'zolari oilada bir-birini o`zaro tushunmaslik, xarakter xususiyatlarining bir-biriga to`g`ri kelmasligida deb bilsalar, ayrimlarida ayol kishi noroziligi, tanbehlari erkakdan o`zini ustun qo'yishi deb bildilar. Bundan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolarning asl sababi oilalarda pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligidadir. Buning uchun mahallalarda bu borada keng qamrovli ishlarni olib borish, mahalla yig`inlarini oilalar bilan hamkorlikda amalga oshirish, oilalarning mahallaga bo`lgan ishonchini, psixolog va pedagoglarga bo`lgan ishonchini oshirish masalalarini hal etish lozim. Konstitutsiyamizning 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo`g`inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo`lish huquqiga ega", degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.¹ Shunday bo`lsada ko`pgina oilalarda turli masalalarda muammolar bo`lib turadi.

Bular:

- oilaviy muammolar azaldan olimlar tomonidan o`rganib kelingan muammolardan biri. Oilaviy muammolar yechimi ustida ko`pgina pedagoglar, psixologlar bosh qotirganlar. Buning isboti tarzida ular yaratgan metodikalarni, testlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu metodikalar asosida oiladagi nizolar muammolar o`rganiladi, tashxislanadi va shu asosda o`rganilgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko`rildi;

- oilaviy muammolar oiladagi o`zaro munosabatlarning noto`g`ri yo`lga

qo`yilishi bilan belgilanadi. Bunday munosabatlar ko`proq er-xotinlar o`rtasidagi o`zaro kelishmovchiliklarini, chiqisha olmaslik, muomalasizlik, kelisha olmaslik, o`zaro xurmatning yo`qligi, oiladagi obro` kabilarda ko`rinadi. Shu bilan birga ota-onalar va farzandlar o`rtasidagi o`zaro bir-birini tushunmaslik holatlari, qaynona-kelin munosabatlaridagi kelisha olmaslikdagi holatlar oilaviy munosabatlaridagi kelisha olmaslikdagi holatlar oilaviy muammolarning eng katta qismini tashkil etadi;

- oiladagi muammolarning yana ko`p qismini moddiy yetishmovchilik tashkil etadi. Oilani moddiy jihatdan ta'minlay olmaslik er-xotin munosabatlarini

yomon ahvolga solib keladi, xozirgi kunda ko`pgina ajrimlarning sababini moddiy yetishmovchilikdan degan xulosalar mavjud. Bunday muammolar farzandlar tarbiyasiga ham jiddiy ta'sir ko`rsatadi. Oiladagi janjallarning sababini tushunib yetgan bolada ota-onaga bo`lgan munosbat o`zgaradi va bu holat ham yana bir muammoni keltirib chiqaradi;

- tadqiqotlarda yana shunga amin bo`ldikki yosh oilalarda hayotga, oilaga bo`lgan munosabat o`zgacha. Ular hayotga, oilaga yengil qaraydilar. Ularda turmush tajribasining ortishida qaynona, qaynota va boshqa oila a'zolari bilan hamkorlikda yashashi muhim ekan. Oilada bo`ladigan muammolarni hamkorlikda hal qilish masalasida ularning ko`maklari zarur ekan;

- Oiladagi ko`pgina muammolarning sabablaridan yana biri bu oilalarning ko`pchilik (qaynota, qaynona, qaynilar, qaynisingil, ovsinlar) bilan yashashidir. Oiladagi o`zaro ikir-chikir, chiqisha olmasliklar ko`pchilik bilan birga yashashdan kelib chiqadi;

- oilaviy muammolarning ko`pgina sabablari er xotin munosabatlariga borib taqaladi. Bunda jinsiy hayot masalasi alohida o`rin egallaydi. Ushbu masaladagi muammolar sharq mutafakkirlari asarlarida ham o`z aksini topgan;

- oilaviy muammolarda oila a'zolarining sog`lom turmush tarziga amal qilmasliklari ham sabab bo`ladi. Otaning yoki onaning, yomon salbiy odatlarga (ichish, chekish, giyohvandlik, yomon yo`lga kirish) odatlanishi hamda oiladagi turli kasalliklarning avj olishi masalalari ham oilada yetarlicha muammolarni keltirib chiqaradi;

- oiladagi tenglik, er-xotinlar hayotidagi tenglik huquqi barchaga ham birdek ma'qul kelmas ekan. Ayrim oilalardagi ayollarni kamsitish, mensimaslik, odam o`rnida ko`rmaslik, fikrlarini inobatga olmaslik holatlari muammolarni keltirib chiqaradi, shu bilan birga ayollarning xukmronligi ham muammolarga olib keladi.

Ushbu xulosalarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- oilaviy muammolar yechimi oiladagi sog`lom psixologik muxit yaratilishiga bog`liq;

- oilaviy muammolar yechimidan biri bu – oila a'zolarini yetarli darajada pedagogik – psixologik bilimlar bilan qurollantirishdan iborat;

- oilaviy muammolar yechimida muammoni keltirib chiqargan har ichki tomonning psixologik jixatdan o`zaro kelishuvini ta'minlash;

- oilaviy muammolar yechimida oila bilan mahalla hamkorligini yo`lga qo`yish eng muhim masalasidir;

- oiladagi shaxslararo tenglikni yuzaga keltirish oila mustahkamligi va barqarorligini ta'minlaydi.

Ushbu tavsiyalar oilalar tinchigi va mustahkamligini ta'minlaydi. Yana shuni aytish kerakki, oilalardagi muammolarni hal etish uchun maslahatxonalar muhim. Ushbu maslaxatxonalar muammolarni yechib berish bilan birga oilalarga psixologik ko`mak bersa. Oila a'zolarini turli qarorlarida yordamlashsa, bunday psixologik madad, ta'sir ko`rsatish inson psixologiyasini o`zgartirsa. Balki shunda oilaviy muammolarga chek qo`yilar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.
– T.: “O`zbekiston” nashriyoti, 2000, 8-tom, 440-441-betlar.
2. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008.
3. Karimova V. M. «Oilaviy hayot psixologiyasi». Toshkent. 2006 yil. 137 b.
4. Shoumarov G’.B. tahriri ostida. «Oila psixologiyasi», T.: «Sharq, 2000.
5. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
9. Davurova, G. (2020). O’ZLASHTIRISHI QIYIN BO’LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
10. Xamrayeva, N. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
11. Davurova, G. (2020). O’ZLASHTIRISHI QIYIN BO’LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
12. Rasulova, D. (2020). QIZLARNI SOG’LOM TURMUSH TARZI ASOSIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.